

ZIYRAK BOLA

Ertak

Qadim-qadim zamonda, bilmam qaysi tomonda bir shahar bor ekan. Ular ko'za, sandiq yasashar, kiyim-kechak tikishar, ekin ekib mo'l hosil olishar, qir-adirlarda chorva boqishar, xullas, bu yerning odamlari juda mehnatsevar ekan.

Bu shahardagi farovon hayotni ko'rgan bir zolim podshoh uni ishg'ol qilish niyatiga tushibdi va ayg'oqchilaridan birini yuboribdi. Ayg'oqchi shahar aholisiga o'xshab kiyinganicha shahar kezibdi. Tor ko'chalardan birida kichkinagina bolaga duch kelibdi va bu boladan ko'p narsalarni bilishni niyat qilib gap boshlabdi:

- Isming nima, bolakay?
- Muzaffar, - javob beribdi bola.

Ayg'oqchining, shahar odamlarida oltin ko'pmi, degan savolidan bola uning yomon niyatini sezibdi. Sezmaganlikka olib dadil javob qaytara boshlabdi:

- Oltinlari juda ko'p, lekin uni hech kim olib ketolmaydi!
- Shahardagi qurollangan jangchilar necha kishidan iborat?
- Ular juda ko'p, - debdi bola, - jangchilarimizni hech kim yengolmaydi.
- Usting yupun, qoming ham ochga o'xshaydi. Agar jangchilar nechtaligini aytsang, senga non beraman, - bolani aldashga tushibdi ayg'oqchi.
- Yo'q, aytmayman, - debdi bola.
- Senga shirinliklar, kiyimlar olib beraman!
- Aytmayman baribir.
- Pul, oltinlar beraman.

Bola yana rad javobini beribdi. U haqiqatan yupun, qorni ham juda och ekan. Ammo kichkina vatanparvar bu yomon niyatli kishining oltinlarini olmabdi. Niyatiga yetolmagan ayg'oqchi po'pisa qilishga tushibdi:

- Ayt, bo'lmasa quloqlaringni kesib tashlayman!
- Aytmayman! - dadil javob beribdi bola.
- Aytmasang, seni qiynab-qiynab o'ldiraman! - debdi tobora jahli chiqayotgan ayg'oqchi darg'azab alpozda.
- Yo'q, aytmayman! - bolaning yuzida mag'rurlik ifodasi ko'rinibdi.

Yovuz niyatda kelgan bo'lishiga qaramay ayg'oqchi o'z yurtini jonidan ortiq ko'radigan bu jasur kichkin- toni yoqtirib qolibdi.

- Mayli, aytmasang aytma. Mana bu pullarni ota-onangga olib bor. Senga kiyim-kechak olib bersin, qor- ningni to'yg'azsin, - deb pul uzatibdi.
- Yo'q, kerakmas, - debdi bolakay, - pullarni o'zim ishlab topaman.
- Men ketdim, qo'rqmas, rostgo'y ekansan. Salomat bo'l, bolakay.
- Men bolakay emasman, - debdi bola, - ota-onam menga Muzaffar deb ism qo'yishgan.

Uning bu gapi ayg'oqchini e'tiborini tortibdi. Ortiga qaytib bolaga bir xalta oltin uzatibdi:

- Unday bo'lsa menga o'z ismingni sota qol. Bir umr ishlasang ham buncha pul topa olmaysan!
- Yo'q, ismimni ham sotmayman, - debdi bola oltinga qayrilib ham qaramay.

Bu bola o'z yurtini sotmasligini bilgan ayg'oqchi yurtiga qaytib ketibdi. Borib o'z shohiga shunday debdi:

- Shohim, men u yerga borib, bir bola bilan suhbatlashdim. Unga ko'p boyliklarni va'da qildim. Ammo u o'z shahridagi askarlar sonini aytmadi.